

**FUQAROLIK JAMIYATI: YIG'ILISH, MITING VA NAMOYISHLAR
HUQUQI – FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARIDAN BIRI
SIFATIDA**

Obloberdiyev Bekmurod

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15280891>

Annotatsiya. Ushbudagi shaxsiy tarixiy jamiyati tarkibi, uning ildizlari va maqola bosqichlari tahlili. shaxs, yig'ilish, miting va namoyishlar huquqi fuqarolik jamiyatining ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Sharq va G'arb tafakkuridagi fuqarolik jamiyati talqinlari o'ziga xos farqlar yoritilib, O'zbekistonga tegishli e'tibor qaratiladi. , "Farolarning mitinglari, yig'ilishlari va namoyishlari to'g'risida"gi qonun loyihasining mazmuni, asosiy prinsip va taktikaviy tahlili. Ushbu maqola xodimlarining ijtimoiy faolligi, o'ziga xos uyg'unlikni ochib tashlash va qonunchilik amaliyoti.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, yig'ilish huquqi, mitinglar, namoyishlar, konstitutsiyaviy huquqlar, qonun loyihasi, huquqiy ong, O'zbekiston qonunchiligi, demokratik jamiyat, fuqarolik erkinliklari.

**CIVIL SOCIETY: THE RIGHT TO ASSEMBLY, RALLIES AND
DEMONSTRATIONS-AS ONE OF THE MAIN INDICATORS OF CIVIL SOCIETY**

Abstarct. Analysis of the composition of the personal Historical Society, uning roots and stages of the article. the right to person, Assembly, rally and demonstrations is considered as an integral element of civil society. The interpretations of civil society in eastern and Western thought highlight specific differences and focus on Uzbekistan. Content, basic principle and tactical analysis of the bill"on rallies, meetings and demonstrations of Faroes". The social activity of the staff of this article, the disclosure of specific harmony and the practice of legislation.

Keywords: civil society, right to assemble, rallies, demonstrations, constitutional rights, bill, legal consciousness, legislation of Uzbekistan, democratic society, civil liberties.

**ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО: ПРАВО СОБРАНИЙ, МИТИНГОВ И
ДЕМОНСТРАЦИЙ – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

Аннотация. Анализ содержания личного исторического общества, его корней и этапов статьи. право личности, собраний, митингов и демонстраций рассматривается

как неотъемлемый элемент гражданского общества. Освещаются специфические различия в интерпретациях гражданского общества в мышлении Востока и Запада, уделяется должное внимание Узбекистану. Содержание, основные принципы и тактический анализ законопроекта "о митингах, собраниях и демонстрациях Фаро". Эта статья посвящена социальной активности сотрудников, выявлению специфической гармонии и законодательной практике.

Ключевые слова: гражданское общество, право собраний, митинги, демонстрации, конституционные права, законопроект, правосознание, законодательство Узбекистана, демократическое общество, гражданские свободы.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan.

Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta‘minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishiga alohida e‘tibor beriladi. Bu g‘oyalar **XXI asrga** kelib keng rivojlandi. Jumladan, **T.Gobbs** asarlarida takomillashtiriddi. **XVIII** asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e‘lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi.

Chunki jamiyatning teng huquqli a‘zolari – „**Fuqarolar**“ tushunchasi paydo bo‘ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. **Kant, Russo, Gegel, Popper** ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma‘naviyatning huquq bilan uyg‘unlashgan, fe‘l-atvor, xatti-harakatlar va qoida me‘yorlarning uzviy uyg‘unlashgan shakli bilan bog‘liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o‘zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me‘yorlarga tayanishi kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Bunda o‘z-o‘zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo‘lgan. Forobiyning „**Fozil odamlar shahri**“ asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo‘lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo‘lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan.

Forobiy fikriga ko'ra, „**Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi**“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiyma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi **g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur** va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llangan.

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida **Fuqarolik jamiyatini** hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko'ra, Fuqarolik jamiyatda mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi. **O'zbekistonda Fuqarolik jamiyatini** ko'rish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmokda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy hukuqiy faollik, hurriyat va qat'iy tartibintizom uyg'unligida Fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida **“Fuqarolarning mitinglari, yig'ilishlari va namoyishlari to'g'risida”**gi qonun loyihasi joylashtirildi. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Qonun **24 moddadan** iborat bo'lib, ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ijtimoiy faoliyat sohasidagi mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar tarzidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Loyihada qayd etilishicha, agar **O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi** bilan O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, majlislar va namoyishlar to'g'risida xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Qonun bilan: *Mitinglar, yig'ilishlar va yoki namoyishlarni o'tkazish fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ularda qatnashish qonuniyligi, ixtiyoriyligi, oshkoraligi, ochiqdigi va ularni tinch yo'l bilan ushlab turish prinsiplariga asoslanadi.*

Konstitutsiyaviy tuzumni majburiy ravishda ag'darib tashlash, milliy, irqiy yoki diniy dushmanlikni qo'zg'ash, zo'ravonlikni targ'ib qilish uchun mitinglar, yig'inlar va namoyishlar o'tkazish shuningdek, davlat organlarini obro'sizlantirish taqiqlanadi.

Mitinglar, yig'ilishlar yoki namoyishlar o'tkazishga faqat haftaning ish kunlarida yo'l qo'yiladi va **10:00dan** oldin boshlanishi va **17:00** dan kechikmasligi kerak bo'ladi

Miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish va o'tkazishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ❖ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ❖ qonuniylik;
- ❖ ixtiyoriylik;
- ❖ ommaviylik va ochiqlik;
- ❖ tinch asosda o'tkazilishi;
- ❖ tomonlarning o'zaro javobgarligi.

Miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil etish va o'tkazish davomida quyidagilar taqiqlanadi:

Ularni konstitutsion tuzumni tajovuzkorlik yo'li bilan ag'darish, milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo'zg'ash, zo'ravonlik va urushni targ'ib qilish maqsadida o'tkazish; davlat organlari va tashkilotlar, korxona va muassasalarning ish faoliyatiga to'sqinlik qilish; shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi atayin yolg'on ma'lumotlarni qasddan tarqatish; miting, yig'ilish va namoyish o'tkaziladigan hududda transport vositalaridan foydalanish; niqob va ular shaxsini vizual aniqlashni qiyinlashtiruvchi va boshqa vositalardan foydalanish, shuningdek inson hayotiga tahdid solishi va sog'lig'iga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatuvchi qurilmalar (shu jumladan, qo'lbola), sanchuvchi yoki kesuvchi predmetlar hamda qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan boshqa buyumlarni, tez alanga oladigan, yonuvchan, o'tkir, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli moddalar, pirotexnika buyumlari, radioaktiv va boshqa moddalar, buyumlar hamda mahsulotlarni yonida olib yurish va undan foydalanish;

Agarda oldindan miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazishni taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, ularni o'tkazishda ishtirok etishga da'vat etish orqali targ'ibot yuritish, shuningdek miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish maqsadida ushbu Qonun bilan tartibga solinmaydigan ommaviy va boshqa tadbirlardan foydalanish taqiqlanadi.

Quyidagi holatlarda miting, yig'ilish va namoyishlarni o'tkazish taqiqlanadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga saylovlar boshlanishidan bir kun avval va saylov kuni saylov uchastkasi yopilgunga qadar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning alohida qarorlari asosida o‘tkazilayotgan muhim davlat ahamiyatiga molik xalqaro tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida, ular o‘tkaziladigan shahar va tumanlar hududlarida. Qonunga muvofiq miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish qoidalariga amal qilinishini ta'minlash uchun to‘liq mas'uliyatni zimmasiga oladigan **18 yoshga** to‘lgan bir yoki bir necha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari miting, yig‘ilish va namoyishlar tashkilotchisi bo‘lishi mumkin.

Quyidagi shaxslar tashkilotchilik qila olmaydi:

- ❖ *Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar;*
- ❖ *Psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida ro‘yxatda turgan shaxslar;*
- ❖ *Sudlangan, ozodlikdan mahrum etilganlar saqlanadigan joyda va probatsiya xizmati nazoratida bo‘lgan shaxslar;*
- ❖ *Ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etganligi,*
- ❖ *Davlatga xoinlik qilganligi, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuzkorlik qilganlar va boshqala*

Miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish uchun ruxsat olish uchun mahalliy ijro etuvchi organlarga ariza taqdim etiladi. Miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishga ruxsat olish uchun ariza tashkilotchi (**tashkilotchilar**) yoxud ularning vakili (**vakillari**) tomonidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yozma yoki elektron shaklda, miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishigacha o‘n besh ish kunidan kam bo‘lmagan muddatda taqdim etilishi lozim.

Arizaga miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish reglamenti ilova qilinadi, unda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- *ijtimoiy faollikning shakli (miting, yig‘ilish va namoyishlar, shu jumladan ko‘cha yurishi, piket o‘tkazish va fleshmob);*
- *miting, yig‘ilish va namoyishlarning maqsadi;*
- *miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkaziladigan joy (joylar), ishtirokchilarning harakatlanish yo‘nalishlari;*
- *miting, yig‘ilish va namoyishlarning boshlanish va tugallanish sanasi va vaqti;*
- *miting, yig‘ilish va namoyishlar ishtirokchilarining taxminiy soni;*
- *miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazishda foydalaniladigan targ‘ibot materiallarining ro‘yxati, shuningdek, tovushni kuchaytiruvchi texnik qurilmalar;*

➤ tashkilotchi (**tashkilotchilar**) yoxud ularning vakili (**vakillari**)ning familiyasi, ismi, sharifi, shuningdek, u/ularning yashash manzili yoki turar joyi, telefon raqami to'g'risidagi ma'lumotlar;

➤ miting, yig'ilish va namoyishlarni tashkil qilish va o'tkazishni moliyalashtirish manbalari.

Miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazishga ruxsat olish uchun ariza tashkilotchi tomonidan, uning yo'qligida esa, vakili (vakillari) tomonidan imzolanadi.